

ANALYSIS OF COGNITIVE METAPHOR AND METONYMY IN UZBEK

Muhayyo Karimovna KHAKIMOVA

Doctor of Philological Sciences, Professor

Alisher Navoiy Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

Feruza Yarichevna RAHMATOVA

Doctoral student

Alisher Navoiy Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

O'ZBEK TILIDA KOGNITIV METAFORA VA METONIMIYA TAHLILI

Muhayyo Karimovna XAKIMOVA

Filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Feruza Yarashevna RAHMATOVA

Doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

АНАЛИЗ КОГНИТИВНОЙ МЕТАФОРЫ И МЕТОНИМИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Мухайё Каримовна ХАКИМОВА

Доктор филологических наук, профессор

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан ORCID ID: 0000-0002-2002-7978 xakimova197621@gmail.com

Feruza Yarashevna RAHMATOVA

Докторант

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан rahmatovaferuza56@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xakimova M.K, Rahmatova F.Y. O'zbek tilida kognitiv metafora va metonimiya tahlili.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 63-80.

<https://doi.org/10.36078/1762248673>

Received: August 21, 2025

Abstract. This article examines how national thinking is reflected in Uzbek cognitive metaphors and metonymies through various examples. It first outlines the concept of metaphor and its types — simple, animating, synesthetic, and cognitive — emphasizing their theoretical features. The cognitive metaphor is interpreted as an essential means of understanding the world, with its formation mechanism defined through the interaction between donor and recipient domains. The main types of cognitive metaphors — structural, orientational, and ontological — are analyzed using examples from literary texts. The article provides an in-depth discussion of cognitive metaphors based on the abstraction of motion and the conceptualization of time, emphasizing the decisive

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



role of national perception in shaping them. The term “*cognitive metonymy*” is introduced and explained, and its conceptual essence is clarified. It is shown that cognitive metonymy also reflects the systematic knowledge and conceptual worldview of native speakers. In cognitive metaphor, abstract and complex concepts are understood through concrete ones, facilitating the process of cognition; metaphor thus functions as an active cognitive tool, with the basis of comparison determined by national thinking. In cognitive metonymy, abstract concepts are perceived through their conceptual connections with other notions. In conclusion, both cognitive metaphor and cognitive metonymy demonstrate that concrete concepts play a crucial role in comprehending abstract notions, while the interplay between sensory and rational cognition becomes particularly evident.

Keywords: metaphor; cognitive metaphor; metonymy; cognitive metonymy; nomination; structural metaphor; orientational (referential) metaphor; ontological metaphors; national perception.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi kognitiv metafora va metonimiyalarda milliy tafakkurning aks etishi turli misollar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda dastlab metafora tushunchasi va uning turlari — oddiy, jonlantiruvchi, sinestetik hamda kognitiv metaforalar — nazariy jihatdan yoritilib, har birining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Kognitiv metafora olamni bilishning muhim vositasi sifatida talqin qilingan bo‘lib, uning shakllanish mexanizmi donor va qabul qiluvchi elementlar o‘rtasidagi semantik munosabatlar orqali aniqlangan. Shuningdek, kognitiv metaforaning asosiy turlari — struktur, oriyentatsion va ontologik metaforalar — badiiy matnlar misolida tahlil qilingan. Maqolada harakatning abstraktlashuvi va vaqt ma’nosiga asoslangan kognitiv metaforalar atroflicha yoritilgan. Har bir turdagi metaforada milliy idrokning belgilovchi roli alohida ta’kidlangan. Kognitiv metafora doirasida milliy tafakkurning hal qiluvchi ta’siri asoslab berilgan. Tadqiqotda ilk bor “kognitiv metonimiya” atamasi qo‘llanib, uning mohiyati ilmiy jihatdan izohlangan. Kognitiv metonimiyada ham til egalarining olam haqidagi tizimli bilimlari va konseptual tasavvurlari ifodasini topishi aniqlangan. Kognitiv metafora jarayonida abstrakt va murakkab tushunchalar konkret birliklar orqali ifodalanib, bilish jarayonini soddalashtiradi. Shu tariqa metafora bilishning faol vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, o‘xshatish asosi esa milliy tafakkur bilan belgilanadi. Kognitiv metonimiyada esa abstrakt tushunchalar o‘zaro konseptual aloqadorliklar orqali anglanadi. Xulosa o‘rnida, kognitiv metafora va kognitiv metonimiyada abstrakt tushunchalarning anglanishida konkret tushunchalar asosiy rol o‘ynashi, hissiy va aqliy bilish jarayonlarining o‘zaro hamkorligi esa yanada ravshanroq namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: metafora; kognitiv metafora; metonimiya; kognitiv metonimiya; nominatsiya; struktur metafora; orientatsion (yo‘naltiruvchi) metafora; ontologik metaforalar; milliy idrok.

Аннотация. В статье рассматривается отражение национального мышления в когнитивных метафорах и метонимиях узбекского языка на основе конкретных примеров. В начале исследования раскрыто понятие метафоры и её виды — простая, одушевляющая, синестетическая и когнитивная метафоры — с акцентом на их теоретические особенности. Когнитивная метафора трактуется как важный способ познания

мира, а механизм её формирования определяется через взаимодействие донорных и реципиентных элементов. Также анализируются основные типы когнитивных метафор — структурные, ориентирующие и онтологические — на примере художественных текстов. В статье подробно освещаются когнитивные метафоры, основанные на абстрагировании движения и выражении значения времени. Отмечается определяющая роль национального восприятия в формировании данных метафор. Впервые введён и объяснён термин «когнитивная метонимия», раскрыта его сущность. Показано, что в когнитивной метонимии отражаются системные знания и концептуальные представления носителей языка о мире. В процессе когнитивной метафоры абстрактные и сложные понятия осмысливаются через конкретные, что облегчает познание. Таким образом, метафора выступает активным инструментом познания, основание её подобия обусловлено национальным мышлением. В когнитивной метонимии абстрактные понятия воспринимаются посредством концептуальных взаимосвязей с другими понятиями. В заключении подчеркивается, что как в когнитивной метафоре, так и в когнитивной метонимии конкретные понятия играют основную роль в осмыслении абстрактных, а взаимодействие чувственного и рационального познания проявляется особенно ярко.

Ключевые слова: метафора; когнитивная метафора; метонимия; когнитивная метонимия; номинация; структурная метафора; ориентационная (референциальная) метафора; онтологические метафоры; национальное восприятие.

Kirish

Metafora juda qadim zamonlardan beri notiqqlar, faylasuflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslarning o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Metafora nutqning jozibadorligini ta'minlovchi vosita, ma'noning shakllanishi va taraqqiyoti usuli, nomlash (nominatsiya) vositasi, milliy tafakkur andozasi hamda bilish shakli sifatida o'rganilgan va o'rganilmoqda.

Metafora o'zbek tilida eng ko'p uchraydigan nom ko'chish usulidir. Biror predmet, belgi yoki harakatning nomi boshqasiga o'zaro o'xshashlik asosida ko'chirilsa, bu metafora yo'li bilan ko'chirish deb ataladi (yunoncha metaphora — “ko'chirish”). Masalan, til leksemasi aslida “insonning ta'm bilish va nutq a'zosi” ma'nosini bildiradi. Ushbu o'xshashlik asosida bu leksema “soatning qimirlab turuvchi qismi” ma'nosida ham ishlatila boshlagan.

Metaforalar turli nuqtayi nazarlarga ko'ra tasnif qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda metaforaning bir necha xil tasniflari keltirilgan. Bu borada Sh. Maxmaraimovanning doktorlik dissertatsiyasida ham batafsil ma'lumotlar berilgan [Maxmaraimova 2018]. M. Mirtojiyevning “O'zbek tili semasiologiyasi” nomli monografiyasida esa oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi turlar haqida keng ma'lumotlar keltirilgan [Mirtojiyev 2010]. Quyida metaforaning quyidagi turlari xususida to'xtalib o'tamiz: oddiy metaforalar, jonlantiruvchi (personifikatsiya) metaforalar, sinestezik metaforalar, kognitiv metaforalar.

Metaforalar nafaqat nutqni bezovchi tasvir vositasi, tildagi iqtisod qonuniyatini amalga oshiruvchi nominatsiya usuli, konnotatsiyani voqelantirish imkoniyati, balki fikrlash usuli hamdir. Kognitiv metaforalarda inson tafakkuri hissiy bilish mumkin bo'lmagan, faqat aqliy bilish orqali anglanuvchi murakkab mohiyatlarni konkret narsalarga o'xshatadi va shu konkret mohiyatning andozasi orqali murakkab mohiyatni bilish oson kechadi.

Bu haqida atoqli ispan adibi va faylasufi Xose Ortega-i-Gasset o'zining mashhur "Ikki buyuk metafora" nomli maqolasida [Xose Ortega-i-Gasset 1990] fikr yuritadi. Mazkur maqolaga o'zbek tilshunosligida N. Mahmudov munosabat bildirgan. Xususan, "Adibning kuzatishicha, metaforaning ikkinchi xil qo'llanishi ko'proq psixik, abstrakt tushunchalarni ifodalash bilan bog'liq. Psixik obyektlarni nomlashgina emas, hatto tasavvur qilishning o'zi ham qiyin, ularning jismoniy o'lchovlari yo'q. Masalan, qalbning tubi deganda tub so'zi ifodalagan joyni, demak, ma'noni konkret tasavvur qilish mushkul, albatta, idishning tubi ifodasida anglatgan joy aniq, ayni so'z tegishli assotsiatsiya asosida psixik obyektga ko'chirilgan va uni tasavvur qilishga imkon yaratgan. Adibning ta'kidlashicha, xuddi shu yerda metaforaning bilishdagi teran va muhim vazifasi namoyon bo'ladi, "metafora faqat nomlash, ifodalash vositasi emas, ayni paytda tafakkurning muhim quroli ekanligida ko'rinadi" [Mahmudov 2017: 119–120].

Xose Ortega-i-Gassetning fikricha, inson uchun jismoniy xarakterdagi narsalar, ularning jismoniy o'lchovlari tabiatan yaqin. Chunki inson tafakkuri jismoniy narsalarni aniq tasavvur qiladi. Abstrakt psixik holatlar esa insoniyat tafakkurining keyingi bosqichlarida shakllangan bo'lib, uni tasavvur qilish oson kechishi maqsadida inson jisimiy narsalarga solishtiradi. Masalan, olim men so'zini aytayotganda insonlarning ko'krigiga qo'li bilan urib gapirishlari, har bir inson o'z "menini" alohida abstraksiyalashda baribir jism bilan bog'lashini ta'kidlaydi. Murakkab tafakkurni talab qiluvchi abstrakt tushunchalarni aniq jismoniy xarakterdagi nomlar bilan atash metaforaning alohida turi sifatida belgilangan.

Asosiy qism

Metafora o'zbek tilida eng ko'p uchraydigan nom ko'chish usuli. Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha *metaphora* — 'ko'chirish'). Masalan, til — leksemasi asli 'insonning ta'm bilish va nutq a'zosi ma'nosini anglatadi. Ushbu o'xshashlik asosida bu leksema "soatning qimirlab turuvchi qismi" ma'nosini ham anglatadi boshlagan.

Metaforaning asosiy ko'rinishlari:

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi: *tish* (odamning tishi), *tish* (arraning tishi), *ko'z* (odamning ko'zi), *ko'z* (uzukning ko'zi, quloq (odamning qulog'i) *quloq* (qozonning qulog'i) kabi.

2. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga o'rindagi o'xshashlik asosida ko'chiriladi: *bosh* (odamning boshi), *bosh* (terakning boshi), *etak*

(ko‘ylakning etagi, etak (dalaning etagi), lab (odamning labi), lab (so‘rining labi) kabi.

3. Bir predmetga xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko‘chiriladi: *nordon* (nordon olcha), *nordon* (nordon gaplar), *shirin* (shirin choy) *shirin* (shirin hid), *tez* (tez yur), *tez* (tez odam) kabi.

4. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko‘chiriladi: *tozalamoq* (uyni tozalamoq), *tozalamoq* (qalbni tozalamoq), *uzmoq* (ipni uzmoq), *uzmoq* (munosabatlarni uzmoq) kabi.

Metaforalar turli nuqtayi nazarlar bilan tasnif qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda metaforaning bir necha xil tasniflari beriladi. Bu haqida Sh. Mamaraimovanning doktorlik ishida ham to‘liq ma‘lumotlar berib o‘tilgan. M. Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” nomli monografiyasida metaforalarning oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi turlari xususida keng ma‘lumotlarlar berilgan. Metaforaning quyidagi turlari xususida to‘xtalib o‘tamiz: oddiy metaforalar, jonlantiruvchi metaforalar, sinestezik metaforalar, kognitiv metaforalar.

Oddiy metaforalarda bir referentning nomi boshqa bir referentga o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi. Bunda umumiylik bevosita qiyos va o‘xshatishga tayanadi. Bu masalada M. Mirtojiyevning fikrlariga murojaat qilamiz. Olim ta’kidlaganidek, darvoza so‘zining dastlabki leksik ma’nosi “hovliga kirib-chiqish uchun mo‘ljallangan qurilish inshooti”ni bildiradi. Shu bilan birga, “futbol o‘yinida to‘p kiritiladigan joy” ham shaklan va vazifasi jihatidan mazkur inshootga o‘xshash bo‘lgani sababli, unga ham darvoza nomi berilgan. Demak, bu holatda darvoza so‘zining yangi — hosila ma’nosi o‘xshashlik asosidagi ko‘chish natijasida yuzaga kelgan. Masalan: “To‘p darvozaning yuqori to‘siniga tegib, maydonga qaytdi” (“Toshkent haqiqati”). Ushbu misolda referentlar o‘rtasidagi o‘xshashlik belgi va vazifalarning bevosita qiyoslanishiga asoslangan bo‘lib, bu oddiy metaforaning mohiyatini ifodalaydi.

Oddiy metaforalar faqat ot turkumiga oid so‘zlar bilan cheklanmay fe‘l, sifat so‘z turkumlarida ham kuzatiladi. Masalan, *bosh* otining “sabzavotning iste‘mol qilinadigan yumaloq qismi” ma’nosida qo‘llanishi shakliy o‘xshashlik asosida yuzaga kelgan hosila ma’nodir. Misol: “*Topgan qo‘y keltirar, topmagan bir bosh piyoz.*” (maqol). *Bitmoq* fe‘lining “o‘lmoq” ma’nosida qo‘llanishi harakatning xususiyat jihatidan o‘xshashligiga ishora qiladi. “*Qizim, dadang, enang xasratingda kuyib bitdi*” (Oybek). *bo‘sh* sifatining “band bo‘lmagan” ma’nosida ishlatilishi esa holat belgisining o‘xshashligiga asoslanadi. “*Bugun ish bo‘lmagani uchun hamma bo‘sh, hovlida gap-so‘z ko‘p.*” (“Qutlug‘ qon” romanidan).

Oddiy metaforalarni qisqargan o‘xshatish deb bo‘lmaydi, chunki ular bevosita o‘xshatish shaklida emas, balki *ma‘no ko‘chishi orqali hosil bo‘lgan semantik birliklardir*. Ular asosan ot va fe‘l turkumiga oid so‘zlarda uchraydi. Shu bois, oddiy metaforalar hosil qiluvchi va hosila ma‘no o‘rtasidagi o‘xshashlik *sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyatlari* asosida shakllanadi [Mirtojiyev 2010: 77].

Jonlantiruvchi metaforalarda jonsiz referentlar jonli referentlarga o‘xshatiladi. Bunday o‘xshatishlar odatda badiiy uslubda ko‘p kuzatiladi

va nutqiy metaforalarda uchraydi. Masalan, barglarning shivirlashi, quyoshning kulishi, osmonning yig'lashi.

Sinestezik metaforalar. Sinesteziya termini grekchadan olingan bo'lib, "birgalikda his qilish" ma'nosini beradi. Sinesteziya muayyan sezgi a'zosining ta'sirlanishi orqali boshqa sezgida ham shunga mos his-tuyg'ularning paydo bo'lishidir. Masalan, tinglash paytida rangni his qilish, ko'rish jarayonida tovushni his qilish. Ayrim kishilarda to'q sariq ranglar ilqlik; ko'k, yashil ranglar esa sovuqlik hissini uyg'otadi. Yoki ovozlar rangli tuyulishi mumkin. Sinesteziyaning makon bilan bog'liq ko'rinishida vaqt makonda turli ko'rinishlarda tasavvur qilinadi: fasllar — aylana, umr — egri chiziq kabi.

Darhaqiqat, sinesteziya hammada ham uchramaydigan jarayon. Mazkur jarayonni boshidan o'tkazuvchi kishilar sinestetlar deb ataladi. Lekin har bir insonda, u sinestet bo'lmasa ham, tug'ma yoki orttirilgan sinesteziya elementlarini kuzatish mumkin. Masalan, limonni yoki juda ham yoqimli taomlarni ko'rganimizda og'zimizning suv ochishi, sanalarni maktab kundaligi yoki kalendaridagi kabi ongimizda loyihalashtirimiz bunga misol bo'la oladi.

Sinesteziya inson psixologiyasining murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, ushbu hodisani ruhiy o'zgarish sifatida ham baholaydilar. Lekin uni dunyoni his qilishning o'ziga xosligi, nodir qobiliyat sifatidagi talqinlari ham mavjud. Masalan, Rimskiy-Korsakov, Skryabin kabi bastakorlar tovushni rangli his qilganlar va nodir san'at asarlarini yaratganlar. Sinesteziya termini tilshunoslikda ma'lum bir sezgi a'zosining ta'sirlanishi orqali boshqa sezgi a'zosida ham hosil bo'luvchi his-tuyg'ularning lisoniy akslanishlarini ifodalaydi. Sinesteziyani metaforada, troplarda, o'xshatishlarda ko'rish mumkin.

Sinesteziya xususida jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy ishlar unchalik ko'p emas. Shveysariyalik tilshunos St. Ulman ... so'z semantik taraqqiyotida tabu, evfemizm, sinesteziya kabi psixik hodisalar ham o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, deb yozadi [Mirtojiyev 2010: 75]. K. Baldinger sinesteziyani psixik hodisa emas, fiziologik hodisa deb, ma'no taraqqiyotidan biri sifatida qaraydi [Mirtojiyev 2010: 75].

Rus tilshunosi V. A. Zvegintsev ham so'z semantik taraqqiyotini mantiqiy-semantik hodisalar nuqtayi nazaridan turib tahlil qilishga qarshi bo'lmaydi, balki unga qo'shiladi. Shuningdek, bunga u, xalq tarixi va tilning tarkibiy xususiyati bilan bog'liq holda tahlil etishni ilova qilish kerak, deb ko'rsatadi. Sinesteziya haqidagi fikrlar metaforaning bir ko'rinishi sifatida o'zbek tilidagi adabiyotlarda ham uchraydi. M. Mirtojiyev sinesteziyani metaforaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi: "Sinesteziya metaforaning shunday bir ko'rinishiki, unda hosila ma'noning ma'lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o'xshatilgan bo'ladi. Referentlar tamoman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ular xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o'xshatilgan referentlar hech qanday o'xshashlikka ham, hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, mayin so'zining genetik ma'nosi tola yoki u bilan bog'li buyumning belgisini ifoda etadi. Bu so'zning hosila ma'nosi ovozning ohista va yoqimli belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining umuman

sezgiga ta'sir etish xususiyatlari o'zaro o'xshatilgan va shunga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirilgan, sinesteziya sodir bo'lgan" [Mirtojiyev 2010: 75].

Xuddi shu kabi har bir xalq egalarida muayyan sezgi natijasida hosil bo'lgan tuyg'ular boshqa bir tuyg'uga o'xshatiladi. Bu o'rinda ikki sezgining qorishiqqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o'ziga xosligi xususida gap boradi.

O'zbek tilida shirin leksemasi ta'm bilish sezgisi orqali his qilinuvchi tuyg'uni — belgini ifodalaydi va u iste'mol qilinadigan narsalarga nisbatan qo'llanadi. Shirin so'zini ovozga, ya'ni eshitish orqali his qilinuvchi narsaga nisbatan qo'llash sinesteziyaga misol bo'ladi: shirin choy (maza-ta'm), shirin ovoz (eshitish), nafis gazlama (teri orqali), nafis hid (hidlash), achchiq qalampir (ta'm), achchiq hid (hidlash), dag'al mato (teri orqali), dag'al ovoz (quloq orqali).

Sinesteziyada ma'lum bir sezgi boshqa bir sezgi qabul qilgan voqelikni boshqasiga o'xshatar ekan, uni o'zbek tilidagi quyidagi ko'rinishlarini aniqlash mumkin bo'ladi:

1. Ovoz belgisi eshitish orqali hosil qilingan belgiga o'xshatiladi: shirin choy, shirin ovoz. "*Sening birlan shirin so'zim, Zahar yutsam shakar bo'lg'ay*". (E. Vohidov). Bu o'rinda eshitishdagi yoqimlilik ta'mdagi yoqimlilikka o'xshatilgan.

2. Ko'rish orqali hosil qilingan belgi ta'm belgisiga: shirin choy — shirin bola. "*Ham ulfatim, hamsuhbatim, Jajji shirin go'daklar*". (E. Vohidov).

3. Hidlash orqali hosil qilingan belgi ta'm belgisiga: achchiq qalampir — achchiq gaz. "*Achchiq gaz hidi dimog'iga urildi*".

4. Eshitish orqali hosil qilingan belgi teri orqali his qilingan belgiga: mayin mato — mayin ovoz. "*Dil ko'shig'in bastalar pari, Nay sasidek mayin, dilrabo*". (E. Vohidov tarjimasini)

5. Ko'rish orqali hosil qilingan belgi teri orqali his qilinuvchi belgiga: nozik mato — nozik qiz. "*Nozikkina elkangda olam tashvishi*".

6. Hidlash yoki ko'rish orqali his qilinuvchi belgi teri orqali his qilinuvchi belgiga: o'tkir pichoq — o'tkir hid. "*Spirtning o'tkir hidi anqidi*".

7. Ta'm belgisi teri yoki ko'rish orqali his qilinuvchi belgisiga: o'tkir pichoq — o'tkir maza: "*Tuzlamaning mazasi o'tkir edi*".

8. Eshitib his qilinuvchi belgi ko'rish orqali his qilinuvchi belgiga: chiroyli qiz — chiroyli ovoz. "*Qanday nafis, qanday chiroyli ovoz. Omadingni qara, Qilichbek!*" (E. Vohidov).

9. Teri orqali his qilinuvchi belgi ta'm belgisiga o'xshatiladi: achchiq qalampir — achchiq qahraton. "*Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil, Maskov bo'sag'asi, Achchiq qahraton*" (E. Vohidov).

Sinestezik metaforada umuman o'xshamagan voqeliklar ham bitta nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko'rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo'ladi.

Kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solgan deb tan olingan J. Lakoff va M. Jonsonlarning "Biz yashayotgan metaforalar" asarida vaqt — pul metaforasi tilga olinadi. Bu mashhur metafora ko'plab tadqiqotlarda misol sifatida uchraydi. Demak, vaqt hissiy bilish mumkin bo'lmagan, moddiylikdan holi bo'lgan murakkab abstrakt tushuncha. Ma'lumki, bu kabi moddiylikdan holi abstrakt tushunchalarni anglash ong uchun

murakkab jarayondir. U konkret pulga o'xshatilar ekan, pulning andozasi, obrazi orqali vaqtni bilish ham oson kechadi.

Mualliflar metafora hosil bo'lish mexanizmini quyidagicha tushuntiradilar. Ularning fikricha, har bir metaforada manba (donor) va qabul qiluvchi tomonlar mavjud bo'ladi. Masalan, o'lchov birliklari inson tabiati uchun manba bo'lishi mumkin: og'ir yuk va og'ir tabiatli kishi. Bu vaziyatda og'irlik o'lchov birligi inson tabiatini tavsiflash uchun manbaga aylanadi, inson tabiati esa o'z navbatida oluvchi bo'lib qoladi [Lakoff & Johnson 1980: 7]. Manba (donor) tomon doim kuzatishda berilgan, inson oson bila oladigan, ko'p murojaat qiladigan, xullas, til egasiga yaqindan tanish bo'ladi. Tana a'zolari, atrof, undagi narsa, harakat va belgilar kognitiv metafora uchun manba bo'ladi.

Oluvchi tomon esa inson bilishi murakkab bo'lgan, bevosita kuzatishda berilmagan, abstrakt, psixik holatlar bo'ladi. Inson tafakkuri mana shunday ko'rish, ushlar, ta'm, hid va ovozi seza olmaydigan murakkab yoki abstrakt tushunchalarni anglashi uchun aniq voqeliklar andoza vazifasini bajaradi. Masalan, o'zbek tilida oila qo'rg'onga o'xshatiladi. Ma'lumki, qo'rg'on atrofi mustahkam o'rab himoyalangan makon sanaladi. O'zbek tafakkurida oila ham qo'rg'on kabi insonlarni har qanday vaziyatda himoyalovchi, sirlari tashqariga chiqmas makon sifatida talqin qilinmoqda. Demak, kognitiv metaforalarda murakkab tushunchalar konkret tushunchalarga o'xshatilar ekan, unda til egalarining milliy idroki aks etadi. Ya'ni, xalq nimanidir nimagadir o'xshatar ekan, u o'zining qarichi, o'zining mo'ljali bilan o'xshatadi.

Ushbu fikrimizni vaqt konsepti misolida ko'rib chiqamiz. O'zbek xalqida vaqt daryoga o'xshatiladi va *vaqt oqar daryo*, *umr oqar daryo* degan konseptual metaforalar mavjud. Insoniyat umrining cheklanganligini anglab, undan qo'rqan va uzoq yashash istagini tuygan. Ana shu tuyg'u uni doimo hayot mohiyatini anglashga undagan. Turli davrlarda turli madaniyatlarda vaqtni bilishda xalq tafakkuri mentallikdan kelib chiqib ish ko'rgan. Insoniyatni doim o'ylantirib kelgan vaqt o'zbek tafakkurida oqar daryoga, tabiatga; inglizlarda esa pul, boylikka; ruslarda qush, shifokor, sudya, oltinga; arablarda qilich, pichoq, kema, tuya, dengiz, oltinga metaforik o'xshatiladi va u orqali bilish osonlashadi [Khakimova 2021: 125].

O'zbek tilidagi "vaqt oqar daryo" metaforasi orqali insonning bu dunyodagi umri juda qisqa ekanligi, o'tkinchi ekanligi, foni dunyoda esa abadiy yashashi, bu dunyodagi vaqtning qadriga etish, abadiy hayot uchun harakat qilish kerakligi kabi tushunchalar o'z aksini topgan.

J. Lakoff va M. Jonson kognitiv metaforalarning 3 ta turini ajratadi:

1. Struktur metaforalar
2. Oriyentatsion (yo'naltiruvchi) metaforalar
3. Ontologik metaforalar.

Struktur tarkibli metaforalarda abstrakt obyektlarning konseptuallasuvi aniq obyektlar orqali ro'y beradi. Muayyan tizimga ega bo'lgan aniq bilimlar mavhum tushunchalarni tartibga soladi va bilishni osonlashtiradi. Bularga g'arb stereotiplariga xos bo'lgan "vaqt — pul", "bahs — urush", "umr — sayohat" kabi metaforalar misol qilib keltiriladi. O'zbek tilidagi "umr — oqar daryo", "hayot — ikki eshik orasi" degan metaforalarni struktur tarkibli metaforaga misol qilish mumkin.

Oriyentatsion metaforada fazodagi yo‘nalishlarning andozasi orqali abstrakt tushunchalar anglanadi. Bunda asosan oppozitsiya hosil qiluvchi old-orqa, tepa-past, ichkari-tashqari, quyi-yuqori, o‘ng-chap kabi makondagi yo‘nalishlarni ifodalovchi tushunchalar mavhum tushunchalarga ko‘chiriladi. O‘zbek tilida yuqori, tepa, baland, old so‘zlari metaforik hosila ma’nolarda, odatda, ijobiy ma’noda; quyi, past, orqa so‘zlari esa salbiy ma’nolarda qo‘llanadi. Quyidagi gaplarda past so‘zi metaforik qo‘llangan:

- *Yo‘ldosh bolaning esi pastligiga ishonmasa-da, buni Xayriga ochiq-oydin aytolmadi (Yoshlik).*
- *Bunaqa yuvosh xotinlarga qaysi erkak past molni ravo ko‘radi (E. Samandar, Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq).*
- *Otasini ko‘ndiramiz, uning tagi past, jazosi pulda (J. Sharipov, Xorazm).*
- *Hammaga ham qilig‘ingiz shumi yoki meni shunday past xotin deb o‘yladingizmi? (Oydin, Ikki ko‘zi shunda)*
- *Past kishida odamiyat nima qilsin (A. Qodiriy, Mexrobdan chayon).*

Ontologik metaforalar. Kognitiv metaforaning bu turida ontologik jihatdan moddiy narsalarning belgilari abstrakt nomoddiy tushunchalar uchun o‘xshatish manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Sodaroq aytganda, abstrakt tushunchalarning belgilari konkret tushunchalarning belgilariga o‘xshatiladi. Masalan, achchiq qalampirning belgisi, u haqiqatga nisbatan qo‘llansa, ontologik kognitiv metafora sanaladi: achchiq haqiqat, shirin orzular, o‘tkir fikr kabi.

Tahlil uchun “og‘ir” so‘zini olamiz. Og‘ir belgisi bu konkret narsa bo‘lgan toshning belgisi. Mazkur belgi abstrakt tushunchalarni anglash uchun ham metaforik qo‘llanishi mumkin: og‘ir hayot, og‘ir musibat, og‘ir xarakter, og‘ir kunlar kabi. Og‘ir so‘zi misolida turli tillarda kognitiv metaforalardagi mushtarak holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi og‘ir leksemasining bosh ma’nosi abstraktlashib, og‘ir mehnat, og‘ir hayot kabi kontekstlarda reallashuvchi abstrakt ma’nolar hosil bo‘lgan. Rus tilida ham *тяжёлый* so‘zining semantik strukturasida *тяжёлый груз* (og‘ir yuk), *тяжёлая работа* (og‘ir mehnat), *тяжёлая жизнь* (og‘ir hayot) kabi bog‘lanishlarda voqelanadigan abstrakt ma’nolar mavjud. Xuddi shu holatni ingliz tilidagi *heavy* so‘zi misolida ko‘rish mumkin: *heavy luggage* (og‘ir yuk), *heavy work* (og‘ir mehnat), *heavy life* (og‘ir hayot). Bu kabi holatlar tafakkurning umuminsoniy mushtarak jihatlari, olam lisoniy manzarasining o‘xshash tomonlari har doim bo‘lganligi va bo‘lajakligi haqida darak beradi [Ортега-и-Гассет 1980].

Lekin o‘zbek tilida og‘ir leksemasining ijobiy ontologik metaforik qo‘llanishi mavjud. Bu quyidagi milliy idrok bilan sharhlanadi: Narsa vaznining og‘irligi qancha katta bo‘lsa, uning harakati shuncha kam bo‘ladi. Ya’ni katta vaznli narsaning tortilish kuchi katta bo‘ladi va uning harakati shuncha sekin bo‘ladi. Sodaroq qilib, aytganda, og‘ir toshni siljitish juda ham qiyin. O‘zbek tili egalari mazkur belgi asosida *vazmin*, *bosiq*, *sipo* abstrakt ma’nosini hosil qilganki, bu insonning yaxshi fazilatlaridan biridir. Vazmin odamda og‘ir tosh kabi tili, xatti-harakatlari,

emotsiyalari tezligi kam bo'ladi. Ushbu fikrimizni quyidagi matndagi og'ir va engil so'zlarining qo'llanishi bilan isbotlash mumkin:

— *Poytaxtni senga, seni Xalloqi olamga inonib ketyapman, — dedi nihoyat amir.*

— *Ammo xavotirim bor, — amir shunday deb o'g'liga savol nazari bilan tikildi.*

— *Nimadan? — dedi amirzoda ajablanib.*

— **Yengilsan.** *Boshboshdoqlikka moyilsan. Hukmni o'tkazmoqda ojiz bo'lib qolmasmikansan? Hukmni o'tkazmoq uchun qattiqqo'l, og'ir bo'lmoq darkor. Ko'ngilbo'shlik fuqaroni to'zitib yuboradi. Ba'zi millat vakillari uchun bunday vazminlik balki ijobiy sifat deb baholanmasligi ham mumkin (Tohir Malik. "Savohil").*

"Temir iroda" metaforasini tahlil qilib ko'ramiz. Bunda abstrakt tushuncha "iroda"ning konseptuallasuvi xalqqa tanish bo'lgan temir haqidagi muayyan shakllangan bilimlar orqali tartibga solinyapti. Ya'ni iroda tushunchasini anglash uchun temir tushunchasi konseptual manba vazifasini bajarmoqda.

Temir eng qadimgi qazilma boyliklardan hisoblanib, miloddan avvalgi 2000-yillarda Osiyoning g'arbiy qismida temirni rudalardan olish usuli topilgan; shundan keyin temir Misr, Yunonistonda ham ishlatiladigan bo'ldi; jez davrini temir davri egallay boshladi. Temir juda mustahkam bo'lib, suyuqlanish temperaturasi 1535°, qaynash temperaturasi 2750° ni tashkil etadi [Vikipediya]. Demak, xalqimiz qadimdan temirdan foydalanib kelgan, turmushga kerakli bo'lgan juda ko'plab asbob-uskanalar temirdan tayyorlangan va u juda mustahkam bo'lgan. Shuning uchun temirning mustahkamligi irodaga o'xshatilgan. O'zbek xalqida iroda tushunchasi egish, o'zgartirish mumkin bo'lmagan temirga o'xshatiladi va u orqali insonlarning o'z fikridan, so'zidan qaytmaydigan, o'zgarmas qat'iyatli xususiyatini anglash oson kechadi: Bunday og'ir sharoitda sarhadlar daxlsizligi, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalarida hamda ijtimoiy barqarorlikni bir maromda ushlab turish uchun insonga temir iroda, yuksak salohiyat lozim va u ham jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlansagina o'z qudratini ko'rsata oladi.

Harakatning abstraktlashuviga asoslangan kognitiv metaforalar. Harakat ma'nosining abstraktlashuvini quyidagi so'zlarda kuzatish mumkin: yorilmoq (bosh yorildi — onasiga yorildi); ko'tarmoq (toshni ko'tarmoq — obro'sini ko'tarmoq), ko'tarmoq (toshni ko'tarmoq — injiqligini ko'tarmoq), ko'tarmoq (toshni ko'tarmoq — xalqni ko'tarmoq), ko'tarmoq (toshni ko'tarmoq — adovatni ko'tarmoq); sinmoq (ko'zaning sinishi — raqobatda sinishi), sinmoq (ko'za sinishi — ruhiyatning sinishi).

Harakat o'xshashligiga asoslangan kognitiv metafora jarayonini tirnamoq leksemasi misolida ko'rib chiqamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida "tirnamoq" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: "tirnamoq asl ma'noda — tirnoq yoki o'tkir uchli narsalar bilan tilmoq, yulmoq, timdalamoq. *Mushukcha bolaning qo'lini tirnab oldi.* Tirnamoq ko'chma ma'noda — xuddi tirnash kabi harakat va uning ta'siriga nisbatan qo'llanadi. *"Sovuq shamol badanni tikanli tili bilan tirnar, nimdosh kiyimdan o'tib sanchar va qaltirar edi. (N. Maqsudiy, Laylatulqadr.) Ammo Yigitalining bugungi ishi uning ichini tirnab o'tdi (I. Rahim, Zangori kema kapitani)"* [O'TIL, 5 jildli, 4-jild, 113-b.].

Shu o'rinda izohli lug'atdagi "xuddi tirnash kabi harakat" izohi o'rinli emas. Holbuki, jismoniy va ruhiy tirnash holatlari bir-biriga umuman o'xshamaydi. Bu o'rinda jismoniy harakat nomi bilan "azob berish" integral sema asosida ruhiy holat nomlanmoqda va kognitiv metaforaga asos bo'lmoqda.

Payt ma'nosiga asoslangan kognitiv metaforalar. Bu jarayonni kun leksemasi misolida ko'rib chiqamiz.

Kun so'zi semantik o'zgarishlarga uchrab, uning ma'no taraqqiyoti omonimiya chegarasiga yetib qolgan. O'zbek tilining izohli lug'atida uning olti ma'nosi qayd etilgan: K1. Quyosh, oftob. Kun botib, qorong'i tusha boshladi. K2. Sutkaning quyosh chiqishidan quyosh botguncha bo'lgan qismi. *"Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz o'tkaza boshladi"* (A. Qodiriy. "O'tkan kunlar"). K3. Bir kecha-kunduzga — 24 soatga teng vaqt, sutka. Bir yil — 365 kun. K4. Oy yoki haftaning ma'lum bir kalendar sanasi. *Shanba kuni siz keling, yakshanba kuni men boray.* K5. Umuman vaqt, payt, kez, davr. *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko'p ertak eshitgandim* (H.Olimjon). K6. Turmush, tirikchilik, hayot. Ushbu ma'nolar asosiy ma'no zahirida hosil bo'lib, ularning shakllanish taraqqiyotini o'rganish uchun, avvalo, bosh ma'noning semantik strukturasi aniqlash lozim bo'ladi. K1 sememasi: nur sochuvchi, yorug', issiq osmon jismi. K2 sememasi K1dan metonimiya asosida o'sib chiqqan: yorug' osmon jismi — sutkaning yorug' qismi. Ya'ni sutkaning osmonda kun — quyosh mavjud bo'lgan qismi. K2 sememasining semalarini quyidagicha aniqlash mumkin: sutka qismi, quyosh chiqishidan quyosh botguncha (quyoshli), yorug'. Ta'rifi: sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botguncha bo'lgan yorug' qismi. K3 sememasi K2 sememasidan ma'no kengayishi asosida o'sib chiqqan. Bunda qism bilan (sutkaning yorug'lik qismi bilan) butun (tun-u kun) nomlanmoqda va o'z-o'zidan ma'lumki, sinekdoxa nom ko'chish usuli sodir bo'lmoqda. K3 sememasining semantik strukturasi: bir kecha-kunduz, 24 soatdan iborat vaqt, sutka. K3 sememasining semik tuzilishida K2 sememasidagi "sutka qismi" semasining ma'nosi kengayib "sutka"ga aylangan. K4 sememasi K3 sememasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan: K3 bir kecha-kunduzga teng vaqt. K4 oy yoki haftaning bir kecha-kunduzga teng sanasi. Ko'rinib turibdiki, K4 shakllanishida bir kecha-kunduz semasi muhim ahamiyat kasb etgan. K4 sememasining semalari quyidagichadir: kalendar sanasi, 24 soat, oy yoki hafta sanasi. K5 sememasi K3 sememasidan ma'no kengayishi asosida hosil bo'lib, bu holatda K2 sememasi tarkibidagi "24 soatdan iborat vaqt" (chegaralangan vaqt) semasi kishi umridagi kunlar bilan o'lnadigan aniq chegaralanmagan ma'lum vaqt, davr, kez ma'nolari uchun ixtisoslashgan. K5 sememasining semik strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin: vaqt, inson umri. Sememaning ta'rifi: inson umridagi muayyan vaqt, davr, kez. Bu semema shakllanishida "kecha-yu kunduzni" aniq ifodalashdan vaqtning bundan kattaroq mavhum qismlarini ham ifodalay boshlashga o'tilgan. Ushbu ma'noning ifodalanishida -lar affiksining ikkilamchi umumlashtiruvchi (Salimlar, Nodirlar) ma'nosi katta ahamiyatga ega: bolalik kunlarimda (vaqtimda), ta'til kunlari (vaqtida) kabi. K6 sememasi K5 sememasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan. Qiyoslang: inson umrining muayyan vaqti va inson umri (turmush, hayot). Bu holatda K4

sememasidagi “inson umri” asos bo‘lgan va “vaqt” semasi e’tibordan soqit qilingan. Ushbu semema “inson umri, hayot, tirikchilik” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Demak, bu o‘rinda kun leksemasining “turmush, tirikchilik, hayot” ma’nosini ifodalovchi 6-ma’nosi kognitiv metafora asosida shakllangan. Bugungi kunda mazkur leksemaning ma’no taraqqiyoti omonimiyaga yetib borgan. Chunki kun so‘zining payt ma’nosini quyoshdan kelib chiqqanligini o‘rtacha saviyadagi til egalari unuta boshlagan. Bu jarayonga quyoshga nisbatan kun so‘zining qo‘llanishi faol emasligi ham ta’sir qilgan.

Kognitiv metaforalarda qiyos qilinayotgan obyektlar bir-biridan ancha uzoq bo‘ladi. Metaforaning asl jozibasi ham shunda. Bir-biridan yer-u osmoncha farq qilayotgan mohiyatlar bir so‘zda mujassam bo‘lsa.

Yengil so‘zini ham paxtaga, ham fikrga nisbatan qo‘llaymiz: yengil paxta va yengil fikr. Nahot paxta bilan fikrning o‘lchovlari o‘xshasa, yoki tub so‘zini ham chuqurlikka, ham qalbga qo‘llaymiz: ko‘lning tubi va qalbning tubi. Bunda ham joziba, ham hikmat bor. Til tilsimlaridan yana biri shundaki, bevosita kuzatishda berilmagan mohiyatlar uchun konkret narsalarning belgi-xususiyatlarini “tirkaganimiz”da, ularni aniqroq tasavvur qilish mumkin bo‘ladi.

Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo‘lidagi asosiy usullaridan biri bo‘lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o‘ziga xos birlashtira olishi tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, kognitiv metafora orqali shakllangan ma’no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Masalan, bitta *nozik* so‘zi bilan “yuksak mahorat va san’at bilan juda bejirim qilib ishlangan” (nozik san’at buyumi); ingichka, yupqa (nozik ip); bejirim, latif (nozik qo‘llar); zaif, nimjon (nozik bola), muloyim, mayin va yoqimli, nazokatli (nozik harakatlar); salga sinadigan, uziladigan, yirtiladigan, bo‘sh, mo‘rt (nozik idish); o‘ziga xos qiyinchiliklari bo‘lgan, alohida mahorat, malaka, bilim talab etadigan (nozik ish); o‘z ishini mayda ikir-chikirlarigacha yaxshi biladigan (nozik gulchi); alohida ehtiyotkorlik talab etadigan, qaltis (nozik holat); alohida e’tibor, mulozamat, takalluf talab etadigan, izzattalab (nozik mehmon); injiq (nozik tabiat) [Никитин 1968] kabi ma’nolarni nomlaymiz. Mazkur o‘n ikkita denotatlar ontologik va gnoseologik nuqtayi nazardan ham farqlanadi. Nozik so‘zi anglatayotgan *ingichka* ontologik belgi bo‘lsa, *qaltis* va *injiq* gnoseologik belgilardir. Ushbularni bitta so‘zda birlashtirish esa xalqimizning cheksiz va sinchkov tafakkuridan, tilimizning beqiyos imkoniyatlaridan darak beradi.

Metonimiya tilshunoslikda nom ko‘chish usullaridan biri sifatida talqin qilinadi. Bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yunoncha metonumiya — “qayta nomlash”). Masalan, dasturxon leksemasi ovqatlanish uchun yoziladigan buyumni anglatadi; bu leksema bilan ovqatning o‘zi, dasturxonga qo‘yiladigan noz-u ne‘matni ham bildiriladi [Rahmatullayev 2006: 53]. Sh. Rahmatullaevning mazkur ta’rifida ham metonimiya terminining so‘zma-so‘z tarjimasi qayta nomlash ekanligi qayd qilingan.

Aslida esa, terminning soʻzma-soʻz maʼnosi lisoniy hodisaning mohiyatini yoritib bera olmaydi. Zero, qayta nomlash umuman boshqa hodisa boʻlib, nomi mavjud narsaning qaytadan, ikkinchi marta nomlashidir. Qayta nomlash neologizmlar va arxaizmlar oʻrtasida, tasviriy ifoda, metaforada, laqablarida yorqin aks etadi. Soddar oq tushuntiradigan boʻlsak, avval paxta deb nomlangan oʻsimlik keyinroq oq oltin deb, ayyor leksemi bilan nomlangan belgi tulki leksemi bilan, Gʻulom Aminjonovich Alimovning Shuhrat taxallusi bilan nomlanishi qayta nomlashdir. Bu qayta nomlash jarayonining metonimiyaga umuman aloqasi boʻlmay, shunchaki terminning maʼnosi bilan hodisaning mohiyatini aralashtirish toʻgʻri emas.

Metaforada bir-biridan uzoq obyektlar **bitta nom** bilan nomlansa, metonimiyada esa bir-biri bilan aloqada boʻlgan obyektlar **bitta soʻz** bilan nomlanadi. Metonimiya metaforadan tubdan farq qiladi va u sinekdoxaga yaqin turadi. Qism va butun munosabati ham aslida aloqadorlikning bir koʻrinishidir.

Metonimiya yoʻli bilan koʻchirishning asosiy koʻrinishlari:

1. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga koʻchiriladi: bosh (kishi organizmining boʻyindan yuqori qismi), bosh (miya: Boshim ogʻridi; ich (ichki tomon), ich (qorin boʻshligʻida joylashgan aʼzolar: Ichim ogʻridi) kabi.

2. Bir predmetning nomi shu predmetga asoslangan oʻlchov birligining nomi boʻlib xizmat qiladi: kun (quyosh), kun (sutkaning yorugʻ qismi); oy (yerning yoʻldoshi), oy (yilning oʻn ikkidan bir qismi) kabi. Baʼzida teskari holat ham yuz beradi.

3. Bir predmetning nomi shu predmet asosida hosil boʻladigan predmetga koʻchiriladi: til (nutq aʼzosi), til (nutq); choy (oʻsimlik), choy (ichimlik); dam (nafas, havo); dam (tinim, vaqt, daqiqa) kabi.

4. Belgining nomi shunday belgisi bor predmetga koʻchiriladi: koʻk (rang nomi), koʻk (koʻkat); kir (iflos), kir (ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak); yupqa (qalinning aksi), yupqa (taom nomi); chuqur (sayozning aksi); chuqur (oʻra) kabi.

Izoh. Bu bandedagi holat metafora yoʻli bilan koʻchirishga oʻxshash, lekin farqli: metafora yoʻli bilan koʻchirishda bir predmetdagi belgining nomi boshqa predmetdagi belgiga koʻchiriladi (oq qogʻoz — oq gvardiya kabi), metonimiya yoʻli bilan koʻchirishda esa belgining nomi predmetga koʻchiriladi (oq (rang nomi), oq (koʻzning oqi) predmet nomi).

5. Predmetning nomi shu predmetning belgisiga koʻchiriladi: bosh (odamning boshi), bosh (bosh farzand, bosh vazir).

6. Harakatning nomi shu harakat natijasida hosil boʻladigan predmetga koʻchiriladi: atala (harakat), atala (ovqat nomi) kabi.

7. Tana aʼzosining nomi u bilan bogʻliq predmetga koʻchiriladi: tomoq (ovqat oʻtadigan aʼzo), tomoq (ovqat).

8. Narsaning nomi uning vazifasiga koʻchiriladi: koʻz (aʼzo), koʻz (nazar) [Xakimova 2025: 87].

Metonimiyaning ham lisoniy va nutqiy turlari mavjud. Semantik strukturada mavjud, lugʻatlarda qayd qilingan maʼnolar lisoniy metonimiya asosida shakllangan boʻlsa, nutqda gapdagi biror soʻzni tushurish natijasida hosil boʻlgan, kontekstdan tashqarida bu maʼnolarni anglatmasa, yaʼni muayyan maʼno semantik strukturada mavjud boʻlmasa

bu nutqiy metonimiyadir. Quyidagilarni nutqiy metonimiyaga misol qilish mumkin: Navoiyni o'qidim, butun zal turdi, mahalla rozi bo'lmadi kabi.

So'nggi paytlarda tilshunoslikda til hodisalariga kognitiv yondashish ustuvorlik qilayotgani hammaga ma'lum. Bugungi kunda kognitiv metafora nazariyasi yaratilgan bo'lib, uning kognitiv asosi, turlari, lug'ati aniqlandi. Lekin hali tilshunoslikda kognitiv metonimiya tushunchasi mavjud emas. Biz ushbu maqolamizda ilk bora "kognitiv metonimiya" terminini qo'lladik.

Ammo metonimiyaga kognitiv yondashuv tilshunoslikda anchadan beri mavjud bo'lib, kognitiv metonimiya ham kognitiv metafora kabi bilishning fundamental usuli va olamni anglashning yo'li. Bilishning bu usuli mental tuzilmadagi metonimik konseptlar asosida shakllanadi. Ya'ni bunda bir konseptual mohiyat unga aloqador boshqa mohiyat orqali anglanadi.

Kognitiv metonimiya oddiy metonimiyadan nimasi bilan farqlanadi degan savol tug'ilishi tabiiy. Metonimiyaning har qanday turi orqali olamning bir bo'lagini bilish jarayoni mavjud bo'ladi. Bu jarayonda bir noma'lum mohiyat unga aloqador ikkinchi ma'lum aloqador mohiyat orqali anglanadi hamda nomlanadi. Masalan, til egalari avvaldan nomlangan oy leksemasi asosida shakllangan o'lchov birligini anglagan va nomlagan. Bunda *vaqt* semantikasiga ega *oy* tushunchasiga osmon jismi bo'lgan oy predmetining aloqasi mavjud ekanligi, bu haqidagi til egalari konseptual bilimlari asos bo'lgan. Yoki o'zbek xalqining kundalik hayotidagi eng ko'p ishlatiladigan choy ichimligining nomi uning tayyorlanishi asos bo'lgan quruq choydan olingan bo'lib, quruq choydan choy ichimligi tayyorlanadi degan oddiy bilim asosida yangi so'z emas, balki metonimik ma'no shakllangan. Demak, har qanday lisoniy metonimiyada til egalari bilimlari aks etadi.

Biz metaforada bo'lgani kabi metonimiyani ham oddiy va kognitiv turlarga ajratdik. Oddiy metonimiyada bir mohiyat unga aloqador boshqa bir mohiyat bilan anglanadi, nomlanadi. Lekin bunda ikkinchi nomlangan obyekt hissiy bilish orqali anglanadi va jarayonning asosiy maqsadi nomlash bo'ladi. Ya'ni ko'rish, eshitish, hid, ta'm bilish, teri orqali bilishda biz mohiyatni osonroq anglaymiz va bunday holatda metonimiya bilishdan ko'ra ko'proq nomlash vazifasini bajaradi. Masalan, yuqorida ko'rganimiz choy leksemasining semantik strukturasi shakllanishida oddiy metonimiya amalda bo'lgan. Zero, o'simlikning muayyan turi ham, uning bargidan tayyorlanadigan quruq va qadoqlangan predmet ham, undan tayyorlangan suyuqlik ham bevosita kuzatishda berilgan. Bu voqealarni anglash ong uchun qiyin emas. Lekin gnoseologik mohiyat sanalgan tushunchalarni bilish ong uchun qiyin ekanligi ma'lum [Xakimova 2019: 30–31]. Abstrakt murakkab tushunchalarni millat tomonidan o'xshash deb topilgan konkret tushunchalarning andozasi orqali bilish kognitiv metaforaning mohiyati sanalsa, abstrakt murakkab tushunchalarni unga aloqador tushunchalar orqali bilish kognitiv metonimiyaning mohiyatidir.

O'zbek tilida mavjud bo'lgan qismat, taqdir kabi mavhum tushunchalarning peshona leksemasi bilan ifodalanishi ana shu kognitiv metonimiya hodisasiga misol bo'la oladi. Peshona so'zining birinchi — bosh ma'nosi inson yuzining qoshdan soch chiqadigan chegaragacha bo'lgan qismidagi tana a'zosini bildirsa, ikkinchi — hosila ma'nosida u

taqdir, qismat kabi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Mazkur semantik ko'chishning sababi diniy-ma'naviy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, an'anaviy e'tiqodlarga ko'ra, inson taqdiri uning peshonasiga yozilgani haqidagi qarash asosida shakllangan. Bu haqda "Musnadi Ba'zor"da Umar ibn Roziyallohu Anhu rivoyatida: Biz taqdiringizga(peshonangizga) risq, ajal, amal va baxtni yozdirdik" deyiladi hadislardan birida. "Qur'oni Karim"ning "Hadid" surasi 22-oyati, "Al-an'am" surasi 6-oyatida taqdirning yozilishi tilga olingan. Demak, peshona — taqdir yozilgan joy sifatida idrok etilgan va bu orqali u taqdirning ramziy belgisi sifatida nom sifatida ham ishlatila boshlagan. Bu holatda peshonaning o'zi emas, balki undagi yozuv ya'ni taqdir nazarda tutiladi. Shu tariqa, aniq bir jismiy obyekt nomi mavhum tushunchaga aloqadorlik asosida ko'chirilgan bo'lib, bu kognitiv metonimiyaning yaqqol namunasidir.

Kognitiv metonimiya oddiy metonimiyadan farqli ravishda, faqatgina tashqi yoki shakliy aloqadorlik asosida emas, balki xalqning tafakkuri, dunyoni idrok etish usuli, madaniy, diniy va tarixiy tajribasi asosida shakllanadi. Ya'ni bu turdagi nom ko'chish jarayoni faqat til birliklari o'rtasidagi yaqinlik, insoniyat tafakkurining ma'naviy, bilish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Kognitiv metonimiya yuzaga kelishida quyidagi uch asosiy omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi aloqa tilshunoslikda, odatda, denotativ yoki ma'noviy yaqinlik asosida izohlanadi.

2. Bosh ma'no odatda aniq, hosila ma'no esa mavhum bo'ladi. Bunday hollarda konkret tana a'zosi nomi mavhum psixik, ijtimoiy yoki falsafiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

3. Ma'no ko'chish jarayonida kognitiv bilimlarning ishtiroki xalq tafakkurida shakllangan diniy e'tiqodlar, falsafiy dunyoqarashlar, tarixiy tajriba hamda tibbiy bilimlarga tayangan holda namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan kognitiv metonimiya tilda yuz beruvchi chuqur semantik jarayon bo'lib, u til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqani yoritishda muhim ilmiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining qadimiy tibbiy bilimlari, ayniqsa, xalq tabobati an'analari hamda Abu Ali ibn Sino va Galen kabi mutafakkir tabiblar nazariyasi asosida, tananing sog'lomligi va muvozanati to'rt xil hayotiy suyuqlik (xilt)ning miqdoriy nisbati bilan bog'liq deb qaralgan. Ular quyidagilar: qon (dam), sariq o't (safro), qora o't (savdo) va balg'am (balgam). Ushbu tasnifga ko'ra, tanadagi sariq o't yoki zarda miqdorining ortishi insonning ruhiy va jismoniy holatiga bevosita ta'sir qiladi: g'azabning kuchayishi, jizzakilik, yurak urishining tezlashuvi, yuzning qizarishi, og'izda achchiq ta'm sezilishi, ko'ngil aynishi kabi belgilar kuzatiladi. Ana shu xalq tajribasi va tibbiy bilimlar asosida o'zbek tilida *zarda* leksemasining metonimik ma'nosi shakllangan bo'lib, u "g'azab", "jahl" singari holatlarni ifodalashda ishlatiladi: *zarda bilan gapirmoq*, *zarda qilmoq*, *zarda bilan qaramoq*, *zardasi yomon kabi birikmalar bunga misoldir.*

Xalqdagi shu kognitiv bilimga asoslanib, aytish mumkinki, tanada zardaning ko'payishi insonda jahl, g'azab, jizzakilikni kuchaytiradi. *Zarda bilan qaramoq, zarda bilan gapirmoq, zarda qilmoq, zardasi*

yomon kabi birliklarda qo‘llangan *zarda* so‘zi metonimik ma’no ko‘chish asosida “jah”l, “g‘azab” ma’nolarini ifodalamoqda, xalqning kognitiv, tibbiy bilimlariga asosan zardaning bevosita jahlni nazorat qilishidan kelib chiqib bu holatni kognitiv metonimiya deb nomlashimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, metonimiyada til egalarining olam haqidagi bilimlari, xususan, mohiyatlarning bir-biri bilan bog‘liq tizimli konseptual asoslari aks etadi. Kognitiv metonimiyada abstrakt tushunchalari boshqa tushunchalar bilan aloqadorlikda osonroq anglanadi. Mazkur aloqadorliklar esa til egalarining olam haqidagi konseptual bilimlari asosida mavjud bo‘ladi.

Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo‘lidagi asosiy usullaridan biri bo‘lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o‘ziga xos birlashtira olishi tahsinga loyiqdir. Konseptual metafora orqali shakllangan ma’no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Kognitiv metonimiyada esa olamdagi aloqadorliklar, til egalarining tizimli bilimlari aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Hakimova M. Leveling lexical abstraction in Uzbek Language. *Anglisticum Journal*. May, 2019. — pp. 36–42. — URL: <https://www.anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/1918>
- Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, — 2021. — No 11. pp.124–126.
- Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago and London, 242 p.
- Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik*. — Toshkent: Universitet, 2006. — 204 b.
- Xakimova M. *Semasiologiya*. — Toshkent, 2025. — 150 b.
- Xakimova M. Synesthetic metaphor in uzbek language // *Asian Journal of Multidimensional Research*, January 2021. — № 10(3). — P. 495–499. — URL: https://www.researchgate.net/publication/367940852_Synesthetic_metaphor_in_uzbek_language?sg%5B0%5D=IjstbeENa9G-
- Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фан.номз. дисс. автореф. — Тошкент, 2000. — 124 б.
- Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. — Қарши, 2018. — 168 б.
- Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи. Филол. док-ри дисс. автореф. — Термиз, 2020. — 210 б.
- Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. — Б. 119–120.
- Миртожиев М. Семасиология. — Тошкент, 2010. — 288 б.

- Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лингвوماданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. — Қарши, 2018. — 210 б.
- Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. — Москва, Высшая школа, 1968. — 242 б.
- Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры / Теория метафоры. — М: Прогресс, 1990. — С. 68–81.
- Тоҳиров З. Метафора лексема семемасининг прагматик семаси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. — Б. 73–77.
- Ўзбек тилининг изохли луғати. 3-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. — URL: <https://library.tiame.uz/ru/resources/01HKPBDFHVB1HAX6NTE4GDTVQM>
- Хажиев С.К. Сўз маъносининг кўчиши билан боғлиқ лингвистик ҳодисалар: Филол. фан. номз. дисс. автореф. — Тошкент, 2007. — 16 б.
- Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. — Тошкент, 2019. — 142 б.
- Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. — Тошкент, 2015. — 18 б.

References

- Hakimova, M. (2019). *Leveling Lexical Abstraction in Uzbek Language*. *Anglisticum Journal*, May, 36–42. <https://www.anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/1918>
- Khajiev, S. K. (2007). *So'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq lingvistik hodisalar* (Linguistic Phenomena Related to the Shift of Word Meaning). PhD Dissertation Abstract in Philology, Tashkent.
- Khakimova, M. (2019). *O'zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi* (The Semantics of Abstract Nouns in the Uzbek Language). Tashkent.
- Khakimova, M. (2021). *Synesthetic Metaphor in Uzbek Language*. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(3), 495–499. https://www.researchgate.net/publication/367940852_Synesthetic_metaphor_in_uzbek_language
- Khakimova, M. (2021). *The Human Factor in the Formation of Abstract Vocabulary*. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11, 124–126. https://www.researchgate.net/publication/358051475_The_human_factor_in_the_formation_of_abstract_vocabulary
- Khakimova, M. (2025). *Semasiologiya* (Semasiology). Tashkent.
- Khudayberganova, D. S. (2015). *O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik tadqiqi* (The Anthropocentric Study of Artistic Texts in the Uzbek Language). Doctoral Dissertation Abstract in Philology, Tashkent.
- Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago and London: The University of Chicago Press.
- Mahmudov, N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi* (The Study of the Mystery of Language). Tashkent: Mumtoz So'z.

- Makhmaraimova, Sh. (2018). *Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti* (The Cognitive Aspect of Theomorphic Metaphor in the National Linguistic Image of the World). PhD Dissertation in Philology, Karshi.
- Makhmaraimova, Sh. (2020). *O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi* (The Anthropocentric Study of Metaphors in the Uzbek Language). Doctoral Dissertation Abstract in Philology, Termez.
- Makhmaraimova, Sh. T. (2018). *Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforalarning kognitiv aspekti* (The Cognitive Aspect of Theomorphic Metaphors in the National Linguistic Image of the World). PhD Dissertation in Philology, Karshi.
- Mirtojiev, M. (2010). *Semasiologiya* (Semasiology). Tashkent.
- Nasrullaeva, G. (2018). *Antropotsentrik metaforaning lingvomadaniy, kommunikativ, pragmatik aspekti* (The Linguocultural, Communicative and Pragmatic Aspects of Anthropocentric Metaphor). PhD Dissertation Abstract in Philology, Karshi.
- Nikitin, M. V. (1968). *Osnovy lingvisticheskoy teorii znacheniya* (Fundamentals of the Linguistic Theory of Meaning). Moscow: Vysshaya Shkola.
- O'zbek tilining izohli lug'ati* (Explanatory Dictionary of the Uzbek Language). (2005). Vol. 3. Tashkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Available at: <https://library.tiame.uz/ru/resources/01HKPBDFHVB1HAX6NTE4GDTVQM>
- Ortega y Gasset, J. (1990). *Dve velikie metafory / Teoriya metafory* (Two Great Metaphors / Theory of Metaphor). Moscow: Progress.
- Qobuljonova, G. K. (2000). *Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini* (Systemic Linguistic Interpretation of Metaphor). PhD Dissertation Abstract in Philology, Tashkent.
- Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi o'zbek adabiy tili* (Modern Uzbek Literary Language). Tashkent: Universitet.
- Tohirov, Z. (1983). *Metafora lekssema sememasining pragmatik semasi* (The Pragmatic Sememe of Metaphor Lexeme). *O'zbek tili va adabiyoti*, 73–77.